

JAMIYATDA INDIVIDLARNI SHAXS BO'LIB SHAKILLANISHIDA IJTIMOIYLASHUVNI O'RNI

*F.I.O: RAFIQJONOVA MARVARID SHAVKATBEK QIZI.
TA'LIM MUASSASASI: ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
I-23-5 GURUX TALABASI.
E-MAIL: rafiqjonovamarvarid@gmail.com*

KALIT SO'ZLAR: ijtimoiylashuv, psixika, sotsiogenetika, biogenetika, psixogenetika, nazariya, individ, S.Xoll, E.Krechmer, pedalogiya, psixologik tip, jismoniy tip.

Abstrakt

Hozirgi kunda odamlar boshqa insonlar bilan aloqa qilishi kerak bo'ladi. Bu aloqalar ish yuzasidan yoki o'qish yuzasidan bo'lishi mumkin. Bu hodisalarni fanda ya'ni psixologiya fanida aloxida bo'limlarga bo'lib o'rganishadi va bu aloqa jamiyatda ijtimoiylashuv deb ataladi. Bugungi kunda odamlar turli usullar bilan ijtimoiylashishadi. Bu odamlarning psixikasiga bo'g'liq jarayon hisoblanadi. Olimlar bu jarayonni o'rganish uchun ko'plab tadqiqotlar o'tkazishadi. Bunda olimlarga ko'ngilli odamlar yordam berishadi.

Abstract

Nowadays, people need to communicate with other people. These contacts can be related to work or study. These phenomena are studied in science, that is, in the science of psychology, divided into separate sections, and this connection is called socialization in society. Today, people socialize in different ways. This is a process that depends on the psyche of people. Scientists conduct many studies to study this process. Scientists are assisted by volunteers.

Абстракт

В наше время людям необходимо общаться с другими людьми. Эти контакты могут быть связаны с работой или учебой. Эти явления изучаются в науке, то есть в науке психологии, разделенной на отдельные разделы, и эта связь называется социализацией в обществе. Сегодня люди общаются по-разному. Это процесс, который зависит от психики людей. Ученые проводят множество исследований для изучения этого процесса. Ученым помогают волонтеры.

Individ jamiyatda shaxs bo'lib shakllanishi uchun ijtimoiylashuvning o'rni juda katta bo'lib, bu jamiyatni rivojlantirish uchun ham ulkan hissa qo'shadi. Bu psixologiyaning ko'plab sohalaridan biri hisoblanib, davlatni rivojlanishi va yosh avlodni voyaga yetkazish, ijtimoiy muhitni yaratish, hozirgi kundagi dolzarb

masalalardan biri hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, individ ommalashishi, yangi sohalarni egallashi ya'ni shaxs bo'lishi uchun ijtimoiylashuv muhim o'rin tutadi.

Hozirgi kunda ko'plab olimlar individni jamiyatda shaxs bo'lib shakllanishida ijtimoiylashuvni o'rnini o'rganish uchun ko'plab tadqiqotlar olib borishgan. Shaxsni o'rganish borasidagi nazariyalar uchga bo'lib o'rganiladi. Bular sotsiogenetik, biogenetik va psixogenetik sohalarga bo'lib o'rganiladi.

Sotsiogenetik sohasi ijtimoiylashuv nazariyasi, o'rganish nazariyasi va rollar nazariyasiga ko'ra o'rganiladi. Ijtimoiylashuv nazariyasi hozirgi kunda asosiy nazariyalardan biri hisoblanadi. Bu nazariyaga ko'ra insonlar biologik tur sifatida tug'ilib, ijtimoiy shart-sharoitning bevosita ta'siri doirasida shaxsga aylanadi (Umumiy psixologiya 97-bet). Bu nazariyaga ko'ra barcha individlar ham shaxsga aylana olmaydi. Chunki jamiyatda barcha o'z o'rniga ega bo'lib, bu jamiyatni rivojlantirish uchun hamma teng vazifaga va huquqiga ega bo'ladi. Shu sababdan, aqli ojiz ya'ni nosog'lam individlar(insonlar) jamiyatda shaxs tushunchasiga ega bo'lmaydi.

Biogenetik sohada ko'plab olimlarni nazariyalari mavjud. Bular S. Xoll, E. Krechmer kabi olimlar.

Bu olimlardan biri psixolog S. Xoll yosh bolalar psixikasini o'rgangan. Bunda rekapitulyatsiya, ontogenez, filogenez, pedologiya kabi psixologiyaning sohalari ko'makchi bo'lib kelmoqda. S. Xoll bolalarni ijtimoiylashuvini o'yinlar orqali o'shirish usulini qo'lagan. Bu esa bolalarni individdan shaxsga aylantirishda muhim o'rin tutgan. Bundan tashqari S. Xollning nazariyasi bolalarni rivojlantirish konsepsiyasi sifatida mashhur bo'ldi va boshqa tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Shuningdek, S. Xoll pedalogiya — bola haqidagi maxsus fan yaratish g'oyasini ham ilgari surgan(S. Xollning rekapitulyatsiya nazariyasi).

Boshqa bir olim bo'lsa, bu biogenetik sohada individlarni tana tuzilishi tipiga bog'liq deb biladi. Bu olim ya'ni, E. Krechmer shaxs tipologiyasi insonning jismoniy tipi bilan psixologik tipi orasida uzviy bo'g'liqlik bor deb taxmin qiladi(Umumiy psixologiya 96-bet).

Bu ikki nazariya bir-biriga qarshi nazariyalar hisoblanib, bir-birini nazariyalarni rad etadi. Ya'ni sotsiogenetik nazariyada insonlarni boshqalar bilan muloqoti muhim rol o'ynasa, biogenetik nazariya esa insonlarni tana tuzilishi va xarakteri asosiy vazifani bajaradi degan fikrlarni ko'rsatishadi. Uchinchi nazariya ya'ni psixogenetik nazariya esa bu ikki nazariyadan farq qiladi.

Shaxsni o'rganish borasidagi nazariyalaridan uchinchisi psixogenetik sohasi hisoblanib, bu nazariyada psixologik tadqiqoqlarni birinchi o'ringa qo'yishadi va bu psixogenetik nazariyani rivojlantirish uchun ko'plab tadqiqotlar o'tkazishadi.

Yuqorida keltirilgan kabi shaxsni o'rganishni uchta nazariya asosida tadbir etamiz. Bu nazariyalardan birinchisi sotsiogenetik nazariya hisoblablanib, bu nazariyaning ijtimoiylashuv nazariyasi individni jamiyatda shaxsga aylanishida muhim

o'rin tutadi. Bu insonlarni ruhan o'rganish uchun ham asos bo'lishi mumkin. Chunki psixologiya fanining predmeti inson ya'ni individ hisoblanib, bu fanning sohalarida insonlarning ongi rivojlanishini va jamiyatning bir qismi bo'lib shakllanishini tajribalarda tadbiq etib, insonlarning o'zgalarni va o'zligini anglash uchun yordamdam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, barcha individlar yoshligidan jamiyatda o'z o'rnini topishi va jamiyatning bir qismi bo'lishi uchun ularga eng kerakli psixologik nazariyalardan biri ijtimoiylashuv nazariyasi asos bo'lib hizmat qiladi. Lekin psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, barcha individ ham jamiyatga qo'shilib shaxsga aylanmaydi. Chunki shaxs bo'lib shakllanishi va jamiyatning bir a'zosi bo'lish, ijtimoiylashish uchun ham aqlan sog'lom bo'lishi, insonlarga zarar bermasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://azkurs.org> . S.Xollning rekapitulyatsiyasi.
2. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya (darslik) 96-bet.O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent 2009
3. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya (darslik) 97-bet. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent 2009